



# SPAIN

INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
ONLINE CONFERENCE

## PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE



2024 YEAR

SPAIN, MADRID



# **PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE**

International scientific-online conference

Part 12

May 29<sup>th</sup>

COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS

MADRID 2024



**PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE:** a collection scientific works of the International scientific online conference (29<sup>th</sup> May, 2024) – SPAIN, Madrid: "CESS", 2024. Part 12– 209p.

Chief editor:

**Candra zonyfar** - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia  
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

**Martha Merrill** - PhD Kent State University, USA

**David Pearce** - ScD Washington, D.C., USA

**Emma Sabzalieva** - PhD Toronto, Canada

**Languages of publication:** русский, india, english, казакша, o'zbek, limba română, Spanish, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE**". Which took place in Madrid on May 29, 2024.

Conference proceedings are recomanded for scientits and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024  
© Authors, 2024

<i>ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ ИШТИРОКЧИЛАРИНИ ҲАВФСИЗЛИГИ – ҲАҚИҚАТНИ АНИҚЛАШ ГАРОВИ</i>	
<b>Odilova Sitora Bobir qizi</b> <i>FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIDA PROTSESSUAL MUDDATLAR INSTITUTI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA</i>	157
<b>Alimdjanov Xayot Farxadovich</b> <i>СПУТНИКОВЫЕ НАВИГАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ</i>	159
<b>Boltayeva.Sh.B</b> <b>Sotimov Munisbek</b> <i>IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON THE WORLD ECONOMY.</i>	163
<b>Boltayeva. Sh. B</b> <b>Yusupov Ismoil</b> <i>TEMIR YO'L LOGISTIKASINING RIVOJLANISHI VA UNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI.</i>	166
<b>Tilavoldiyeva D.X</b> <b>Vaqqosova Sh.G'</b> <i>JIGAR QURTINING RIVOJLANISH SIKLI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI</i>	170
<b>Tilavoldiyeva D.X</b> <b>Nazirjonov N.J</b> <i>BUYRAK-TOSH KASALLIGINI ANIQLASH VA DAVOLASHDA AYRIM OZIQ-OVQAT QO'SHIMCHALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI</i>	172
<b>Maxsudova Dilorom Idrisovna</b> <i>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASDA ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARINING NOAN'ANAVIY ENERGIYA MANBALARI</i>	175
<b>З.М. Ахмедова</b> <i>РАЗРАБОТКА СПЕЦИАЛЬНОЙ ТРАВМАТОЛОГИЧЕСКОЙ БОЛЬНИЧНОЙ ОДЕЖДЫ С СМЕСОВОЙ ТКАНЬЮ</i>	178
<b>Н.А. Исахожаева</b> <b>Ахмедова З.М</b> <i>ИЗУЧЕНИЕ ТРЕБОВАНИЙ ПРЕДЪЯВЛЯЕМОЙ БОЛЬНИЧНОЙ ОДЕЖДЫ</i>	182
<b>Пустовая Елена Сергеевна</b> <i>ОБЗОР ТОРГОВЛИ НА СКОТ И ПРОДУКЦИЮ ЖИВОТНОВОДСТВА НА БАЗАРАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В 60 – 80 ГГ. XIX ВЕКА.</i>	185
<b>Пустовая Елена Сергеевна</b> <i>КРАТКИЙ ОБЗОР ЦЕНОВОЙ ДИНАМИКИ НА ШЕЛК НА БАЗАРАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В 60 – 80 ГГ. XIX ВЕКА.</i>	193
<b>Abduhamidova Ozoda</b> <i>3-7 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALAR PSIXOLGIYASI</i>	198
<b>Vadenova Sh.S</b> <i>ALOHIDA YORDAMGA MUXTOJ BOLALAR BILISH</i>	202



## TEMIR YO'L LOGISTIKASINING RIVOJLANISHI VA UNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMYATI.

**Boltayeva. Sh. B**

*BuxDu, Yashil iqtisodiyot va Agrobiznes katta o'qtuvchisi.*

**Yusupov Ismoil**

*Buxoro Davlat Universteti talabasi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada temir yo'l logistikaning vujudga kelish tarixi, va temir yo'l logistikasini O'zbekistonga kirib kelishi va rivojlanishi boshqa transport turlari bilan solishtirganda afzalliklari.*

**Kalit so'zlar :** *Temir yo'l transporti, lokomotiv, motovogonlar, kontenyer, paravoz.*

Temir yo'l transporti - yuk va yo'lovchilarni lokomotiv va motovagonlar vositasida temir yo'l bo'ylab tashiydigan transport turi. Uning paydo bo'lishi yirik sanoat taraqqiyoti, ayniqsa, tog'kon va metallurgiya sanoati taraqqiyoti bilan bog'liq. XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarida kapitalizmning rivojlanishi yuk aylanmasi tuzilmasini tubdan o'zgartirdi, temir rudasi, ko'mir, qurilish materiallari va shu kabini ommaviy tashishga ehtiyoj o'sdi. 1825-yil jahonda birinchi umumiy foydalanishdagi Stokton —Darlington temir yo'l (21 km, Angliya) J.Stefenson tomonidan qurilgan. 30-yillarda Avstriya, Germaniya, Belgiya, Fransiya, Rossiyada xam temir yo'l qurildi. 1850—70 yillarda Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Avstraliyada xam kurila boshladi. 20-asr boshlarida jahonda temir yo'l tarmog'i 1 mln. km dan oshdi. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida temir yo'l tarmoklarini tez rivojlantirgan sabablardan biri, uning katta harbiystrategik ahamiyatga egaligi bo'lib, Transport yo'lit. xo'jalik, iktisodiy va strategik vazifalarga xizmat qilish bilan bir qatorda mamlakatlararo, hududlararo madaniy aloqalarni rivojlantirish, ijtimoiy masalalar, xalkaro turizm sohasida xam ishtirok etadi, mamlakatning ilmiytexnik taraqqiyotiga xam salmokli hissa ko'shadi. Temir yo'l transportining afzalliklaridan biri — boshqa transportga nisbatan yuk tashish kiymatining arzonligi, yilning har qanday faslida va bir yo'la katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyatiga egaligidir. O'zbekistonda dastlabki temir yo'l 1886—88 yillarda Zakaspiy temir yo'lining Forob styasidan Samarqandgacha yotqizilgan (podsho Rossiyasi tomonidan imperiyaning jan. chegaralarini mustahkamlashga qaratilgan va harbiystrategik maqsadlardagi Zakaspiy harbiy temir yo'l nomi bilan 1880-yil noyabrdan 1886-yil dekabrgacha kurib bitkazilgan Krasnovodsk — Chorjo'y temir yo'lining davomi). 1888-yil may oyida Amudaryo orkali 2,7 km uzunlikdagi yog'och ko'prik kurib bitkazilishi bilan temir yo'lda Samarqandgacha poyezdlar qatnovi boshlandi. Keyinchalik bu yo'l 1895—97 yillarda Ursatyevskaya (Xovos) styasidan Qo'qongacha davom ettirildi. 1899-yil temir yo'l Toshkentga yetkazildi. 1890-yil kuzida 1874-yilda Rossiya imperiyasining maxsus temir yo'l komissiyasi kurish zarur deb topgan Toshkent— Orenburg temir yo'l qurilishi boshlandi. 1906-yil yanvarda Toshkent — Orenburg temir yo'l (Toshkent temir yo'li) ishga tushirildi. 1907-yil Kogon—Buxoro, 1913—16 yillarda Farg'ona halqa temir



yo'lining Qo'qon—Namangan—Andijon qismi, 1913—15 yillarda Kogon—Amudaryo styasi va Qarshi—Kitob shoxobchalari kurildi. 1917-yilga qadar hozirgi O'zbekiston hududida jami temir yo'l uzunligi 1,1 ming km edi. 20-asrning 20y.laridan boshlab fuqarolar urushi yillarida vayron bo'lgan temir yo'l harakat tarkibi va yo'l xo'jaligini tiklash uchun zarur choralar kurildi. Shahar va portlarni birlashtiruvchi yangi temir yo'l liniyalari kurilishiga ham e'tibor berildi. Farg'ona (Iskobil) — Kuvasoy (1922), Karshi— Kitob (1924), Amudaryo (Samsonovo) — Termiz (1925), Asaka —Shahrixon (1931) va boshqa temir yo'l liniyalari kurilib foydalanishga topshirildi. 1929—31 yillarda kurilgan uz. 1452 km bo'lgan Turkiston—Sibir temir yo'li (Turksib) O'zbekiston temir yo'l bilan ulandi. 30-yillarda O'zbekiston temir yo'lda EU seriyadagi yangi parovozlar ishlay boshladi, yirik styalarda vagonlar saralashda qulay bo'lgan maxsus moslamalar, nim do'nglik (gorka)lar, konteyner maydonlari kurildi, katta, masofalarda temir yo'l liniyalari rekonstruksiya qilindi, poyezdlarning harakat tezligi oshirildi, yuk va yo'lovchilar tashish ko'paydi. 1941—45 yillardagi urush davrida Temir yo'l t.da front uchun zarur yuklar tashildi. Urushdan keyingi yillarda transportning bu soxasida tub o'zgarishlar qilindi. Lokomotivlar kuvvati oshirildi, poyezdlar tig'iz qatnaydigan joylarda ikkinchi yo'llar kurildi. Parovozlar o'rniga elektrovoz va teplovozlar ko'llanildi. Styalarning texnika bilan jihazlanishi yaxshilandi. Bu davrda magistral yo'llardan sanoat shaharlariga (Toshkent—Angren, Toshkent— Chirchiq) shoxobcha yo'llar kurildi. 1963-yili Krasnovodsk—Boku parom yo'lining ishga tushirilishi bilan Toshkent—Krasnovodsk liniyasi Ozarbayjon temir yo'l bilan muntazam boglandi. 1964-yil O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston temir yo'llari boshqaruvi Toshkentda bo'lgan yagona O'rta Osiyo temir yo'lga birlashtirildi. 1971-yilda Qozog'iston orqali Rossiyaga chiqadigan Qo'ng'irot—Beynov temir yo'l kurildi. 1982-yil Termiz shahri yaqinida Amudaryo orqali Afg'onistonga o'tadigan temir yo'l va avtomobil yo'li ko'prigi foydalanishga topshirildi. Aksariyat viloyat markazlarida yangi temir yo'l vokzallari kurildi. 1994 - yil noyabrda O'rta Osiyo temir yo'lining O'zbekiston Respublikasida joylashgan temir yo'l korxonalari va bo'limlari, loyihakonstruktorklik va boshqa tashkilotlari, muassasalari negizida "O'zbekiston temir yo'llari" davlataksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi tashkil etildi. Respublika temir yo'l transportini rivojlantirish istiqbollari Iktisodiy hamkorlik tashkiloti mamlakatlarining Kvetta rejasida belgilangan vazifalar qatoridan o'rin olgan.

21-asr boshida O'zbekiston Transport yo'lit. tarkibida ijtimoiy sohalar va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan korxonalar muassasa va tashkilotlardan iborat bo'lgan yagona texnologik ishlab chiqarish. majmuiga aylandi. Kompaniyaning temir yo'ldan foydalanishga mas'ul bo'lgan Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Buxoro, Qo'ng'irot, Qarshi— Termiz mintaqaviy temir yo'l uzellari fao, liyat ko'rsatadi (2004). Yuk tashishda teplovozlar (respublika temir yo'lda parovoz 1974-yilgacha ishlatildi), yo'lovchilar tashishda teplovoz va elektrovozlar xizmat ko'rsatadi. Transport yo'lini elektrlashtirish dastlab 1970-yil Toshkent—Yangiyo'l uchastkasida boshlangan. Keyinchalik Xo'jakent—Sirdaryo liniyasi (148 km)da elektr poyezdlari katnovi yo'lga qo'yiddi. 1985-yildan temir yo'lni



o'zgaruvchan tokda elektrlashtirishga o'tildi. 1993-yilda Transport yo'lining Xovos—Bekobod va Xovos—Jizzax liniyalari elektrlashtirildi. 2003-yildan Toshkent—Samarqand yo'nalishida "Registon" elektropoyezdi qatnovi yo'lga qo'yildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning yagona temir yo'l tarmog'ini vujudga keltirish bo'yicha uz. 700 km ga yaqin Navoiy — Uchquduk — Nukus temir yo'li kurib bitkazildi, 223 km li Toshguzar — Boysun — Qumqo'rg'on temir yo'li kurilishi boshlab yuborildi. Bu yo'llar xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston temir yo'llari kompaniyasi tasarrufida asosiy temir yo'lining foydalanish uz. 3992 km. Bundan tashqari, 1992,7 km stya yo'llari va 362,4 km respublika korxonalarida shoxobcha yo'llaridan foydalaniladi. Elektrlashtirilgan temir yo'l liniyalari uz. 620 km (2004-yil 1 yanvar). Hozirgi kunda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ umumiy uzunligi 7500 kmdan oshdi. (2024 yil)

Mazkur sohani rivojlantirish, kelgusidagi vazifalar - Jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistik system) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu xalqaro tashkilot hisobotlari va Butunjahon banki ma'lumotlariga asosan jahon transport xizmatlari bozorining YAIM tarkibidagi miqdori 4,2 trl. dollar va 6,8 foiz ulushda baholanib, yiliga 110 mlrd. tn yuk va bir trilliondan ortiq yo'lovchilar tashilgan, transportda band bo'lgan xodimlar 100 mln. kishini tashkil etadi.

Bugungi kunda transport xizmatlarining keng doirasi dunyo miqyosida oshib borayotgan yuk va yo'lovchi oqimini ta'minlab turish orqali xalqaro aloqalarning rivojlanishiga, - global iqtisodiyotning shakllanishiga olib kelmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar, ya'ni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsiyalarning ommaviy ravishda joriy etilayotganligi, jumladan transport xizmatlari ko'rsatish sohasiga ham tegishli jarayon bo'lib ulgurdi. Transport tizimining muhimligi iqtisodiy rivojlanish uchun maqsadli dasturni amalga oshirishni, har xil transport turlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks maqsadli dasturni amalga oshirishni taqozo etadi. Ushbu maqsadli dastur transport tizimini rivojlantirish uchun oldiga quyidagi muammolarni o'z oldiga qo'yadi:

- transport infratuzilmasini ekspluatatsiya qilish va rivojlantirish;
- yo'lovchi va yuk transporti xizmatlarini takomillashtirish;
- xalq xo'jaligini yuktashishga bo'lgan talabiniqondirish;
- xalqaro transport aloqalariva transport yo'laklaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish;
- transport infratuzilmasida harakat xavfsizligini ta'minlash va ekologik muammolar.

O'zbekiston temir yo'llaril 50 mingdan ortiq turli tiplardagi yuk vagoni va Germaniyada tayyorlangan refrejeratorlarga, 1450 yo'lovchilar tashiladigan vagonga ega. Tashiladigan yuklarning asosiy qismini qurilish materiallari (umumiy tashiladigan yuk hajmini 32%), paxta tolasi (17%), g'alla, sement, kimyoviy mahsulotlar va mineral o'g'itlar, ko'mir, sabzavot va boshqa xalq xo'jalik yuklari tashkil etadi. Mamlakatimiz transport va logistika sohasining faol ishtirokchilaridan biriga aylangan «Unico Logistics Co Ltd.» (Janubiy Koreya) kompaniyasi xalqaro yuk tashuvlar borasida «GM Uzbekistan», «GM Powertrain Uzbekistan», «SamAuto», «Daewoo International», «Samsung» singari yirik ishlab chiqaruvchilarning yaqin hamkori sanaladi.



Mamlakatimizda transport-kommunikatsiya tizimini dunyo bandargohlari bilan bog'lashga qaratilayotgan e'tibor natijasida dengiz portlariga ega davlatlar bilan hamkorlik aloqalari kengaymoqda. «TransUzbekistan» Latviya Respublikasi milliy guruhida o'ndan ziyod kompaniya temir yo'l tashuvlari bilan bir qatorda bandargoh xizmatlarini taklif etmoqda. 2020 yilda respublikamizda quvvati 405 ming tonna bo'lgan 25 ta zamonaviy agrologistika korxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2021 yildan ular soni va xizmatlar salmog'i yanadada kengaydi. 2020 yilda tashqi savdo aylanmasi 36,3 milliard AQSH dollarini tashkil qilib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 5,4 milliard AQSH dollariga yoki 13,1 foizga kamaydi. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 15,2 milliard AQSH dollarini (13,4 foizga kamaygan), import hajmi 21,1 milliard AQSH dollarini (12,8 foizga kamaygan) tashkil qilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zamirbekova, G. "ISSUES OF TRANSPORT LOGISTICS IN EFFECTIVE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITY." SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM 1.3 (2023).1.
2. Bebudovna, Boltayeva Shakhnoz. "Importance of Logistics System Development in Uzbekistan." EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY 2.II (2022): 6-9.
3. Narzieva, D. M., and A. D. Kudratov. "the importance of digitalization of the economy and priorities in Uzbekistan." World Economics and Finance Bulletin 2.2 (2021): 9-13.
4. Болтаева, Шахноз. "Modern Directions of Small Business and Entrepreneurship Development in Uzbekistan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 20.20 (2022).
5. Рахматуллаева Ф. М., Болтаева Ш. Б. Совершенствование системы управления персоналом на промышленных предприятиях //Экономика и финансы (Узбекистан). –2014. – №. 5. – С. 51-54.
6. Таирова М. М., Болтаева Ш. Б. Роль агромаркетинга в развитии экспортаплодоовощной продукции Узбекистана //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2014. – №. 8-1. – С. 157-159.
7. <https://srcyrl.xyal-worklightbar.com/info/advantages-and-disadvantages-of-railway-transp>
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Temir\\_yo%CA%BBl\\_transporti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Temir_yo%CA%BBl_transporti)